
HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISH MUHIM VAZIFA

Bugun Fayz mahalla fuqarolar yig'iniidagi 19-umumiy o'rta ta'lim maktabida, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qo'shtepa tuman bo'linmasi, tuman Axborot kutubxona markazi hamda xalq ta'limi bo'limi hamkorligida "Yoshlarni turli hil oqimlarga kirib qolishlarini, jinoyatchilik va huquqbuzarlikni oldini olish, shuningdek ularning ma'naviyatini yuksaltirish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar" yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi. Unda maktab o'qituvchilari, mahalla faollari va yoshlar ishtirok etdilar.



Tadbirda soʻzga chiqqanlar oʻz ma'ruzalarida jinoyatchilikka qarshi kurashish barcha davrlarda ham davlatning jiddiy va muhim masalasi hisoblanib kelinganligi, inson tinch va xotirjam yashashni hohlashi va tinchlik boʻlgan joyda baraka va rivojlanish boʻlishini alohida ta'kidlab oʻtishdi. Shuningdek, yoshlarni turli hil oqimlarga kirib qolishlarini hamda jinoyatchilik va huquqbuzarlikni oldini olish, oʻquvchi-yoshlarning ma'naviyatini yanada yuksaltirish, oʻqishga va ilm olishga boʻlgan qiziqishlarini yanada oshirish yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi.

N.Otabekov,

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qo'shtepa tuman bo'linmasi rahbari.

2021-01-11 16:21:31